

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

XO‘JAYEV DAVLATXO‘JA XASAN O‘G‘LI

**DAVRIY KESIM YUZALI ARMATURANING BETON BILAN
BOG‘LANISH MUSTAHKAMLIGIGA KONSTRUKTIV OMILLARNING
TA‘SIRI**

05.09.01 -Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Хо‘jayev Davlatxo‘ja Xasan o‘g‘li

Davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligiga konstruktiv omillarning ta’siri 3

Хужаев Давлатхужа Хасан уғли

Влияние конструктивных факторов на прочность сцепления арматуры периодического профиля с бетоном 27

Khujaev Davlatkhuja Khasan ugli

The influence of structural factors on the bond strength between reinforcement of periodic profile and concrete 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

XO‘JAYEV DAVLATXO‘JA XASAN O‘G‘LI

**DAVRIY KESIM YUZALI ARMATURANING BETON BILAN
BOG‘LANISH MUSTAHKAMLIGIGA KONSTRUKTIV OMILLARNING
TA‘SIRI**

05.09.01 -Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3768 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqi.uz va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Raximbay Rixsibaevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Saidaglam Agloyevich
texnika fanlari doktori, professor

Berdiyev Oblakul Bobakulovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “19” dekabr soat 12⁰⁰ da Toshkent arxitektura-qurilish universiteti faollar zalida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9 uy, 4-bino, 5-qavat Tel/faks (55) 508-50-14, 508-03-12 e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№135 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy. Tel.: (+99890) 372-71-94; faks: (+99871) 234-15-11, e-mail: taqi_atm@edu.uz), faks: (99871) 241-80-00, e-mail: taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 6 » dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « 23 » oktyabrdagi 46 - raqamli reestr bayonnomasi).



X.A. Akramov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

I.I. Siddiqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

B.A. Asqarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kapital qurilish sohasidagi muhim masalalari orasida qo'llaniladigan beton va temirbeton konstruksiyalarning sifatini har tomonlama oshirish hamda ta'minlash uchun samarali materiallar, hom-ashyo va energiya resurslarini tejamli qo'llash masalalariga ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda bino va inshootlar temirbeton konstruksiyalarini ishonchliligini oshirish, umrboqiyiligini ta'minlash dolzarb va ko'p qirrali muammo hisoblanib, uni hal qilish uchun har tomonlama yechimlarni o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Temirbeton konstruksiyalarning ishonchliligini oshirish uchun ularni loyihalashda chuqur eksperimental-nazariy tadqiqotlar natijalariga asoslangan hisoblash usullaridan foydalanish hamda ekspluatatsiya sharoitlarini inobatga olish masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda ekspluatatsiya qilinayotgan temirbeton konstruksiyasining yaxlitligi, yuk ko'tarish qobiliyati va ishonchliligi armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda davriy kesim yuzali armatura sterjenlarining samaradorligini baholash va ular orasida yuzaga kelgan kuchlanish-deformatsiya holatlarini tadqiq qilish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Temirbeton konstruksiyalarning kuchlanish-deformatsiya holatini tekshirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, shikastlangan konstruksiyalar orasidagi nuqsonlarning bir qismini ulardagi armaturaning beton bilan bog'lanishining buzilishi tashkil qilib, bu kabi nuqsonlar temirbeton konstruksiyalarini tayyorlash, ularni ekspluatatsiyasi jarayonida va seysmik ta'sirlar natijasida ham paydo bo'lishini o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini rivojlantirish, bino va inshootlarni ishonchliligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ... korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish"¹ bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda davriy kesim yuzali armaturaning betonlar bilan bog'lanish mustahkamligiga konstruktiv omillar ta'sirini eksperimental-nazariy tadqiqot qilish va uni hisobiy aniqlash usullarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tadbıq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 fevraldagi PQ-139-son «Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 martdagi PF-5963- son «O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 23 apreldagi 231-sonli «Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 6119-sonli Farmoni ilovasida kelitirilgan “Arxitektura va qurilish sohasida fundamental, qidiruv, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning samaradorligini oshirish” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog‘lanishining o‘ziga xosliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan alohida va maqsadli eksperimental-nazariy tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan. Shu munosabat bilan, ularni tadqiqot qilish muhim va murakkab vazifalardan hisoblanadi.

Armaturaning beton bilan bog‘lanish masalalarini hamda ularning kontakt qismidagi kuchlanish-deformatsiya holatlarini o‘ziga hosligini va birgalikdagi ishini eksperimental-nazariy tadqiqotlar bo‘yicha xorijiy olimlar Baykov V.N., Gvozdev A.A., Gizdatullin A.R., Karpenko N.I., Tixonov I.N., Xozin V.G., Xolmyanskiy M.M., Xotko A.A., Mulin N.M., Madatyana S.A., Ovchinnikova I.G., Berg O.Ya., Il‘erbakov Ye.N., Bedarev V.V., Oatul A.A., Rehm G., Darwin D., Peckover J., Tepfers R.A., Emperger F., Eunsoo Choi hamda yurtimiz olimlaridan Asqarov B.A., Berdiev B.O., Yusupov Z.Yu., Durdieva G.S., Usmanov V.F., Xodjaev S.A., Shadjalilov Sh., Yusupxodjaev S.A., Yusupov R.R va boshqalar nazariy va amaliy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Bu masalani hal qilish uchun davriy kesim yuzali armatura sterjenlarining (sirti qovurg‘ali armatura) beton bilan bog‘lanish masalalarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, olinadigan yangi natijalar temirbeton konstruksiyalar uchun hisobiy konstruktiv talablarni aniqlash uchun yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent arxitektura-qurilish universitetining O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan tuzilgan IL 722209824 “Bazalt, metall va shisha asosida standartlarga mos hamda seysmik mustahkamlik konstruksiyasiga ega fibrobeton olish texnologiyasini yaratish” grant mavzuning bir qismi hamda xo‘jalik shartnomasi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Davriy kesim yuzali armaturaning betonlar bilan bog‘lanish mustahkamligiga konstruktiv omillar ta‘sirini eksperimental-nazariy

tadqiqot qilish va uni hisobiy aniqlash usuli bo'yicha taklif va tavsiyalar berishdan hamda ularni temirbeton konstruksiyalarini hisoblash amaliyotiga qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, tahlil qilish va eksperimental tadqiqotlar uchun konstruktiv omillarni belgilash;

armaturaning beton bilan bog'lanishini eksperimental tadqiqot qilishning usullarini tahlil qilish va ushbu dissertatsiya ishida tadbiiq qilish uchun asoslash;

davriy kesim yuzali o'roqsimon armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligiga konstruktiv omillar ta'siri bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va olingan natijalar asosida ular orasidagi bog'lanishlarni o'rnatish;

beton namunasiga markaziy joylashtirilgan armatura sterjenini tortib chiqarish ta'siridan ularning birgalikdagi ishini tahlili va olingan natijalar bo'yicha o'rnatilgan bog'lanishlarini armatura va betonning xususiyatlari orqali ifoda etish;

davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligini hisobiy aniqlash uchun matematik model yaratish va armaturani ankerlash uzunligini hisobiy aniqlash bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti. Armaturasi tortib chiqariladigan turli betonlardan tayyorlangan namunalalar.

Tadqiqotning predmeti. Davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligiga konstruktiv omillarning ta'siri, armaturaning beton bilan birgalikda ishlashi, temirbeton elementlardagi armaturaning ankerlash uzunligi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligini aniqlashda nazariy va eksperimental usullar qo'llanildi. Natijalarni tahlil qilish armaturaning beton bilan "bog'lanish nazariyasi"ga asoslandi, amaliy tadqiqotlarda esa GOST 12004-81, O'zDst 3025-2015 bo'yicha armaturaning mexanik xususiyatlarini aniqlash va GOST 10180-2012 talablari bo'yicha beton namunalarni sinovdan o'tkazish hamda olingan natijalarni taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Beton namunaga markaziy joylashtirilgan armatura sterjenini tortib chiqarish orqali ular orasidagi bog'lanish mustahkamligini aniqlandi va natijalar bo'yicha statistik tahlil o'tkazildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davriy kesim yuzali armaturaning og'ir beton, keramzitbeton va bazaltfibrobetonlar bilan bog'lanish mustahkamligiga konstruktiv omillarning ta'siri o'rganilgan va olingan natijalarga ko'ra, beton turiga bog'liq bo'lmagan holda, armatura diametrining oshishi bog'lanishning kamayishiga, beton mustahkamligining ortishi uning o'sishiga olib kelishi aniqlangan;

armaturaning beton bilan kontakt qismidagi kuchlanish-deformatsiya holatlari o'rganilgan va ularning birgalikdagi ishi tortish kuchi ta'siridan bosqichma-bosqich o'zgarishlari eksperimentlarda qo'llanilgan betonlar uchun bir hil rivojlanishlari isbotlangan;

armaturaning geometrik parametrlari bilan bog‘lanish mustahkamligi orasidagi o‘zgarishlari uning ko‘ndalang qovurg‘alari o‘lchamlari va orasidagi masofaga bog‘liq bo‘lib, silliq yuzali armaturaning ana shunday ko‘rsatkichlariga nisbatan 3,22 barobargacha katta bo‘lishi o‘rganilgan;

davriy kesim yuzasi o‘roqsimon armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini armatura diametri va betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamlik sinflarini ta‘sirini hisobiy aniqlash uchun matematik model ishlab chiqilgan;

armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini hisobiy aniqlashdan foydalanib, uning temirbeton konstruksiyalari tarkibidagi ankerlash uzunligini optimal qiymatini hisobiy aniqlash bo‘yicha amaliy foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: Davriy kesim yuzali sinfi A400 armaturaning og‘ir beton, keramzitbeton va bazaltfibrobetonlar bilan bog‘lanish mustahkamliklari bo‘yicha yangi eksperimental natijalar olingan va uning texnik samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

sinfi A400 armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini hisobiy aniqlash uchun matematik modellar yaratilgan bo‘lib, ulardan temirbeton konstruksiyalarni hisoblash va loyihalash jarayonida foydalanish tavsiya etilgan;

yaratilgan matematik modellardan foydalanish orqali davriy kesim yuzali armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini aniqlash darajasi va o‘z navbatida armaturani ankerlash uzunligini ta‘minlash ishonchliligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu dissertatsiya bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda armaturaning beton bilan bog‘lanishini sinash usullari uni beton namunadan tortib chiqarish usuliga asoslangan. Izlanishlar zamonaviy asbob va uskunalardan foydalangan holda bajarildi. Ushbu dissertatsiya natijalari bilan bir qatorda boshqa mualliflar ishlari natijalaridan ham foydalanildi, ularga statistik ishlov berish usullari va hisobiy qiymatlarni tajriba natijalari bilan taqqoslash orqali bajarilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati armaturani beton tarkibidan tortib chiqarish orqali o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlardan olingan bog‘lanish mustahkamligini hisobiy aniqlash uchun matematik modellar yaratilgan. A400 sinfli armaturaning og‘ir beton, keramzitbeton va bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligi bo‘yicha yangi eksperimental natijalar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangidan loyihalanadigan temirbeton konstruksiyalarda armaturani ankerlash uzunligini hisobiy aniqlash bo‘yicha berilgan tavsiyalardan foydalanish ularning ishonchliligini oshiradi hamda armatura sarfining asossiz ko‘payishini oldini oladi va texnik samaradorligini oshishi hisobidan ortiqcha harajatlarni iqtisod qilishni ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davriy kesim yuzali o‘roqsimon armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligiga konstruktiv omillarning ta‘sirini eksperimental-nazariy tadqiqotlar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

temirbeton konstruksiyalar armaturasini ankerlash uzunligini va xaqiqiy kuchlanish-deformatsiya holatini aniq hisoblash “ToshuyjoyLITI” AJ tomonidan joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 sentabrdagi 24-06/9710-son ma’lumotnomasi). Natijada, temirbeton konstruksiyalarni loyihalash jarayonida ularni hisoblash ishonchliligi yanada ortgan;

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistrantlari uchun “Yevropa ittifoqi me’yorlariga muvofiq qurilish konstruksiyalarini loyihalashtirish asoslari” va “Bino va inshootlarni qayta qurish, tekshirish va sinovdan o‘tkazish” fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonlariga tadbiiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 sentabrdagi 24-06/9710-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quv jarayoniga qo‘llash universitetda tayyorlanayotgan kadrlar sifatini bevosita oshirishga imkon yaratgan;

dissertatsiya tavsiyalari temirbeton konstruksiyalarni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi ilmiy loyiha markazi “MASShTAB PROEKT-STROY” MChJ amaliyotida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 sentabrdagi 24-06/9710-son ma’lumotnomasi). Natijada, temirbeton ko‘p qavatli karkasli binoning yuk ko‘taruvchi to‘sinlari armaturasini ankerlash zonalari uzunligini optimal qiymatini belgilash hisobiga uning sarfini 3-5% ga iqtisod qilishga erishilgan;

eksperimental tadqiqotlar va laboratoriya sinovlarini o‘tkazish uchun sinov moslamasi, ularni o‘tkazish tartibi va natijalarga statistik ishlov berish dasturlari “Gidroproekt” AJ qoshidagi sinov laboratoriyasida joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 sentabrdagi 24-06/9710-son ma’lumotnomasi). Natijada, bog‘lanish mustahkamliklarini aniqlashda sinovlarning sifati va ishonchliligi ortgan;

amaldagi me’yoriy hujjat O‘zDst 3025-2015 “Silliq va davriy profilli armatura prokati. Texnik shartlar”ni yangilash uchun berilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning 2024-yildagi rejasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 17 oktabrdagi 24-06/10927-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaldagi standart bo‘yicha armatura sterjenlariga qo‘yiladigan talablar darajasi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobotsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlar natijalari bo‘yicha jami 21 ta maqola chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari asosida chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, 2 ta maqola horijiy jurnallarda nashr qilingan. 6 ta maqola xalqaro va respublika konferensiyalaridagi ma’ruzalar to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, asosiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat.

Dissertatsiya hajmi 119 betdan, 15 jadvaldan, 39 rasmdan va 4 ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilanib, ob‘ekt va predmetlari keltirilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlariga muvofiqligi shakllantirilgan. Muammoni o‘rganilganlik darajasi va Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot rejalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, ularni amaliyotda qo‘llanilganligi hamda tadqiqot natijalarining nashri va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligining eksperimental-nazariy tadqiqotlari natijalarini tahlili”** nomli birinchi bobida armaturaning beton bilan bog‘lanishi mustahkamligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, armaturaning beton bilan birga ishlashining o‘ziga hosliklari va mexanizmi, armaturani beton bilan bog‘lanish mustahkamligini va uni ankerlash uzunligini hisoblash usullari yoritib berilgan.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, davriy kesim yuzali mahalliy armaturaning turli betonlar bilan bog‘lanish mustahkamligini eksperimental-nazariy tadqiqotlari hajmi yetarli darajada emas. Ko‘rilayotgan mavzu bo‘yicha mavjud tadqiqotlarning tahlili va ko‘lami asosida ushbu tadqiqotning maqsadi shakllantirildi va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari. Tajriba namunalarni tayyorlash va sinash”** deb nomlangan ikkinchi bobida amalda qo‘llanilgan eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari, armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini aniqlashni tanlangan eksperimental usulini asoslash, materiallar xususiyatlari va tajriba namunalarni tayyorlash, eksperimental tadqiqotlar tarkibi va sinovlar o‘tkazish usullari haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Beton namunalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan beton qorishmasi amaldagi me‘yoriy xujjatlar talabiga binoan belgilandi; tayyorlangan beton namunalari 28 kunda ularni mustahkamligini aniqlash uchun GOST 10180 va GOST 22690 bo‘yicha sinovlardan o‘tkazildi.

Tortib chiqarish usuli bilan armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligini aniqlash uchun maxsus metall moslamadan foydalanildi (2 va 3 rasmlarga qarang).


Armatura bilan beton orasidagi bog‘lanish qarshiligi (R_{bd}) eksperimental aniqlashning mavjud ikki usuli solishtirildi va texnik nuqtai nazaridan samaraligi asoslanib tanlandi (1-rasm). Bunga sabab, respublikamizda amal qiladigan O‘zDSt 3025-2015 “Silliq va davriy profilli armatura prokati. Texnik shartlar” standartida bunday laboratoriya sinovlarini o‘tkazish uchun talablar keltirilmagan.

Xar ikkala usul bo'yicha armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligi (R_{bd}) 1-formula bilan aniqlanadi:

$$R_{bd} = \frac{P}{l_{an} \cdot u}, \text{ MPa} \quad (1)$$

- bu yerda: P – armatura sterjenini betondan tortib chiqaruvchi chegaraviy zo'riqish, kN;
 l_{an} – armatura sterjenining betonlangan qismi uzunligi (ankerlash uzunligi), sm;
 u – sterjen perimetri, sm;
 $u = \pi \cdot d$ – (d - armatura sterjnining o'rtacha diametri).

1-rasmdagi sxemada “armatura-beton” konstruksiyasida ta'sir qiluvchi kuchlar keltirilgan.



1-rasm. Ta'sir qiluvchi kuchlar hisobiy sxemasi

Ta'sir qiluvchi kuchlar, a – sxemada: \bar{P}_1 – tortuvchi kuch; \bar{G}_a – armatura og'irligi; \bar{G}_{b1} – beton og'irligi; \bar{F}_b – armatura va beton bog'lanish kuchi; b – sxemada: \bar{P}_2 – tortuvchi kuch; \bar{G}_a – armatura og'irligi; \bar{G}_{b2} – beton og'irligi; \bar{F}_b – armatura va beton bog'lanish kuchi.

Statik sistemalar uchun kuchlarni muvozanat shartlariga asosan kuchlarni o'qlar bo'yicha kuchlanishlari nolga tengligidan aniqlanib, $R_{bd,1}$ va $R_{bd,2}$ orasidagi bog'liqlikni aniqlaymiz:

$$\frac{R_{bd,2}}{R_{bd,1}} = 1 + \frac{g \cdot \Delta m_b}{(\rho_a \cdot \pi \cdot \frac{d^2}{4} \cdot h \cdot g + m_{b1} + P)} \quad (2)$$

ρ_a – armaturaning zichligi kg/m^3 ; d – armatura diametri, mm; h – bog'lanish uzunligi, mm; $g = 9,81 \text{ m/c}^2$; m_{b1} – h balandlikdagi beton og'irligi, kg; P – armatura sterjenini betondan tortib chiqaruvchi chegaraviy zo'riqish, kN; Δm_b – massalar orasidagi farq, kg.

(2) tenglamaning ikkinchi qo‘shiluvchisi qanday kichik qiymatlarda bo‘lsa ham, $R_{bd,2}/R_{bd,1} > 1$ dan katta bo‘ladi. Shuning uchun eksperimental tadqiqotlarni birinchi usul bo‘yicha o‘tkazildi.

Yuqorida keltirilgan tahlilga binoan, $R_{bd,2} > R_{bd,1}$ bo‘lishi aniqlandi.

Ikkinchi usul bo‘yicha sinovlarni o‘tkazishda kuchlanishning konsentratsiyasi (jamlanish) dan armaturaning beton bilan bog‘lanmagan qismida darzlar hosil bo‘lish ehtimoli yuqori.

Ushbu eksperimental tadqiqotlarda og‘ir beton namunalarini tayyorlash uchun “Qizilqumsement” AJ ning markasi CEM II/A 32,5N, me‘yoriy quyuqligi 27 % va mustahkamligi bo‘yicha faolligi 38.2 MPa portlandsementdan foydalanildi.

Yirik to‘ldiruvchi sifatida fr. 5-20 mm bo‘lgan granit shebendan foydalanildi.

Mayda to‘ldiruvchi sifatida kvars qumi ishlatildi.

Bazalt tolalari (ishlab chiqaruvchi “MEGA INVEST INDUSTRIAL” MChJ) uzunligi 20 mm bo‘lgan tolalardan iborat.

Keramzitbeton tayyorlash uchun mahalliy keramzit va mayda qumlar ishlatildi.

Davriy kesim yuzali sinfi A400 markasi 35GS va A240 bo‘lgan armaturalardan betonlar bilan bog‘lanish mustahkamligini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishda foydalanildi. Armaturalar “Uzmetkombinat” AJ (Bekobod sh.) da ishlab chiqarilgan.

Bu sinovlarni o‘tkazish uchun og‘ir beton, keramzitbetonning va bazaltfibrobetonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha uch xil sinflari tanlandi.

Beton mustahkamligi o‘zgaruvchan hossa hisoblanadi, shuning uchun nazorat namunalaridan tashqari uni asosiy namuna betonida ham aniqlashga to‘g‘ri keldi. Bunday sinovlarni o‘tkazish uchun hozirgi vaqtda keng qo‘llanilib kelinayotgan ONIKS-2.5 asbobidan foydalanildi.

Bog‘lanish mustahkamligini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar GMR-1 (2-rasm) va RMG-50 (3-rasm) gidravlik cho‘zuvchi mashinalarda o‘tkazildi.



2-rasm. Namunalarni sinashni GMR-1 mashinasida o‘tkazishning umumiy ko‘rinishi



3-rasm. Gidravlik cho‘zuvchi mashina RMG-500 da bog‘lanish mustahkamligini eksperimental aniqlash

Eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish uchun konstruktiv omillar sifatida quyidagilar belgilandi:

- armatura sinfi A400, diametrlari 12, 18 va 25mm bo‘lgan armatura sterjenlari;
- armatura sinfi A240, diametri 12mm bo‘lgan armatura sterjenlari;
- armaturaning geometrik parametrlari – ko‘ndalang qovurg‘alar balandligi va ular orasidagi masofa;
- beton turi - og‘ir beton, keramzitbeton va bazaltfibrobeton;
- ogir betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha sinflari - B15, B20 va B30;
- keramzitbetonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha sinflari - B12,5, B15 va B25;
- bazaltfibrobetonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha sinflari - B15, B20 va B22,5.

Dissertatsiyaning **“Davriy kesim yuzali armaturaning turli betonlar bilan bog‘lanish mustahkamligining eksperimental-nazariy tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida armatura diametri va og‘ir beton mustahkamligining bog‘lanishga ta’siri, armaturaning konstruksion keramzitbeton bilan bog‘lanish mustahkamligini tadqiqoti, armaturaning bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligini tadqiqoti natijalari, davriy yuzali armaturaning geometrik parametrlarini bog‘lanish mustahkamligiga ta’siri, armaturaning turli betonlar bilan bog‘lanish mustahkamligini hisoblash usulini takomillashtirish masalalari bayon qilingan.

Bog‘lanish mustahkamligiga armatura diametrining ta’sirini uning diametrlari 12, 18 va 25 mm bo‘lgan sinfi A400 sterjenlarda o‘rganildi. Bunda og‘ir beton sinfi B15, B20 va B30 ga teng qilib tayyorlandi. Tadqiqot natijalarining o‘rtacha qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Eksperimental tadqiqotlarning o‘rtacha natijalari


1-jadval

Beton sinfi	Beton zichligi, kg/m ³	Beton mustahkamligi, MPa	Armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligi, MPa		
			Armatura diametri, mm		
			12	18	25
B15	2235	22,6	6,6	6,3	5,0
B20	2240	27,2	8,6	7,4	5,5
B30	2355	41,6	10,2	8,7	6,9

1-jadvalda keltirilgan natijalarga muvofiq armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligi uni diametriga bog‘liq, ya’ni u kattalashgan sari tadqiqot qilinayotgan ko‘rsatkich kamayib boradi. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday bog‘liqlik boshqa tadqiqotlarda ham kuzatilgan, lekin farqi olingan natijalar qiymatida, chunki armatura sterjenlari yuza shakli har xil bo‘lishi mumkin (4-rasm).


Tajriba namunalarini buzilish xarakteri ham armatura bilan beton orasidagi kuchlanish-deformatsiya holatlariga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Betondagi kuchlanish (σ_{max}) qiymati betonning cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamligidan (R_{bt}) katta bo‘lganda, namunani bo‘laklarga ajratuvchi darzlar xosil bo‘ladi va oqibatda bo‘ylama darzlar hisobidan ikki yoki uch bo‘laklarga ajraladi. Agar $\sigma_{max} < R_{bt}$ bo‘lsa, beton namunasidagi armatura betonni qirqish hisobiga buzilishi sodir bo‘ladi.



4-rasm. Armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligining beton sinfiga bog‘liq holda o‘zgarishi

Yuklanmagan armaturadagi kuchlanishning bosqichma-bosqich oshishi natijasida undagi uzayishning o‘zgarish grafiklari 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Yuklanmagan armaturadagi uzayishning o‘zgarish grafiklari:
1-armatura diametri 12 mm; 2-armatura diametri 18 mm; 3-armatura diametri 25 mm

Armaturaning konstruksion keramzitobeton bilan bog‘lanish mustahkamligiga uning diametri va beton sinfining ta‘sirini o‘rganish uchun o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlar bo'yicha sinov natijalari

2-jadval

Keramzitbeton sinfi	Keramzitbetonni sinov kunidagi mustahkamligi, MPa	Statistik taqsimot parametrlari	Armatura diametri, mm	
			12	18
B12,5	17,2	R_{bd} S_m ν	6,1	5,5
	18,0		0,67	0,36
	15,5		6,1	7,2
O'rtacha qiymat	16,9		-	-
B15	21,6	R_{bd} S_m ν	7,5	6,4
	22,6		0,31	0,65
	21,8		4,85	7,3
O'rtacha qiymat	22,0		-	-
B25	34,6	R_{bd} S_m ν	9,9	8,8
	33,4		0,36	0,46
	32,8		8,4	4,95
O'rtacha qiymat	33,6		-	-

R_{bd} – bog'lanish mustahkamligining o'rtacha arifmetik qiymati, MPa;

S_m – o'rtacha kvadratik og'ish; ν – variatsiya koeffitsienti, %.

Ma'lumki, armaturaning betonlar bilan bog'lanish mustahkamligini aniqlovchi omillardan biri – sement gelining yelimlovchi qobiliyati, ya'ni uning beton tarkibida sarfi hisoblanadi. Bu masala bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, diametri 12 mm bo'lgan sterjen armaturaning konstruksion keramzitbeton bilan bog'lanish mustahkamligini quyidagi model orqali hisoblash mumkin:

$$R_{bd} = 1,3 \cdot K_a \cdot r_0 \cdot \sqrt{R_b(t_0)}, \text{ MPa} \quad (3)$$


bu yerda: r_0 – beton qorishmasi tarkibidagi sement+qum aralashmasining solishtirma ulushi; $R(t_0)$ – keramzitbetonning yuklanish momentidagi mustahkamligi, MPa; K_a – armatura yuzasi shaklining ta'sirini inobatga oluvchi koeffitsient; $K_a = 1,0$ – silliq yuzali armatura uchun; $K_a = 1,9$ – davriy kesim yuzali armatura uchun; 1,3 – g'ovakli to'ldiruvchi xususiyatlariga bog'liq koeffitsient.

Ushbu model bo'yicha $R_b(t_0) \geq R_{b,28}$ dan yuqori, hamda keramzitbeton siqilishga mustahkamligi sinflari B12,5 dan B25 gacha bo'lishi kerak.

Olingan natijalarning o'zaro bog'liqligi 6-rasmda keltirilgan. Armatura diametri 12 mm va 18 mm bo'lgan holatda armaturaning keramzitbeton bilan bog'lanish mustahkamligi bo'yicha oralaridagi farq qiymatlar bo'yicha kuzatilgan.

Armatura diametri 12 mm uchun uning keramzitbeton bilan bog'lanish mustahkamligini (3) formula bo'yicha hisobiy qiymatlari 2 jadvaldagi tajriba qiymatlariga nisbati 0,93 ga teng, ya'ni ular orasidagi farq o'rtacha 7 %.

Armatura diametri 18 mm bo'lganda, uning bog'lanish mustahkamligining armatura diametri 12 mm dagi bog'lanish mustahkamligiga nisbatining o'rtacha qiymati hisoblar natijalari bo'yicha 0,9 teng, ya'ni o'rtacha 10 % ga kam ekanligi aniqlandi.



6-rasm. Armatura sterjenining keramzitbeton bilan bog‘lanish mustahkamligini uning sinfiga bog‘liqligi:

1 – armatura diametri 12 mm; 2 – armatura diametri 18 mm

Mahalliy hom ashyolardan tayyorlangan bazaltfibrobetonning davriy kesim yuzali sinfi A400 bo‘lgan diametrlari 12, 18 va 25mm armatura sterjenlari bilan hamda sinfi A240 armatura uchun ham bog‘lanish mustahkamligi tadqiqoti natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadvalda sinfi A240, diametri 12 mm armatura sterjenining bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligining o‘zgarishi beton mustahkamligiga bog‘liqligini kuzatish mumkin, ya’ni beton mustahkamligi ortgan sari bog‘lanish mustahkamligi ham ko‘payadi. Bazaltfibrobeton mustahkamligi 21,2 MPa dan 30,1 MPa ga oshishi, uning armatura bilan bog‘lanish mustahkamligini 1,54 MPa dan to 2,24 MPa gacha oshishini ta’minlaydi, ya’ni bu o‘shish 45% ni tashkil etadi. Bunga asosiy sabab – bazaltfibrobeton tarkibidagi sement massasining oshishi (adzeziya kuchayadi) va bazalt tolalarining beton tarkibida bir tekis tarqalishi, ya’ni “roving” holdagi tolalar o‘rami foydalanilgan beton tayyorlash texnologiyasi tufayli alohida-alohida tolalarga ajralib ketganligi natijasi, deyish mumkin.

Armaturaning bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligi

3-jadval

Bazaltfibrobeton sinfi	Beton mustahkamligi, MPa	Armatura sinfi	Armaturaning beton bilan bog‘lanish mustahkamligi, MPa		
			Armatura diametri, mm		
			12	18	25
B15	21.6	A240	1.52	-	-
	21.5		1.59	-	-
	20.4		1.5	-	-
O‘rtacha qiymat	21.2(20.6)		1.54		

3-jadval davomi

B15	21.6	A400	5.69	4.95	3.25
	21.5		5.67	5.02	3.16
	20.4		6.16	4.45	3.07
O'rtacha qiymat	21.2(20.6)		5.84	4.81	3.16
B20	28.41	A240	2.12	-	-
	27.83		2.22	-	-
	24.2		1.90	-	-
O'rtacha qiymat	26.8(27.8)		2.08		
B20	28.41	A400	6.10	5.4	3.66
	27.83		5.93	4.8	3.35
	24.2		6.55	4.81	3.00
O'rtacha qiymat	26.8(27.8)		6.19	5.0	3.34
B22.5	29.28	A240	2.32	-	-
	30.24		2.28	-	-
	30.82		2.12	-	-
O'rtacha qiymat	30.1(32.0)		2.24		
B22.5	29.28	A400	6.48	5.30	4.22
	30.24		6.50	5.64	3.94
	30.82		6.37	4.95	4.54
O'rtacha qiymat	30.1(32.0)		6.45	5.3	4.23


Izohlar. 1. Qavs ichida ONIKS 2.5 asbobi bilan o'lchangan qiymat.

2. Betonning o'rtacha zichligi tabiiy holatda 2260-2270 kg/m³ ga teng.

3-jadvalda keltirilgan natijalar tahlilidan yana shuni aniqlash mumkin, davriy kesim yuzali armatura sterjenlarining bazaltfibrobeton bilan bog'lanish mustahkamligi bir xil solishtirish sharoitida yuzasi silliq armatura sterjenlariga (A240) nisbatan ancha yuqori. Bunday solishtirishlar natijalariga ko'ra, beton sinfi B15, diametrlari 12mm armatura uchun bog'lanish mustahkamligini ortishi 3,8 barobarni; beton sinfi B20 bo'lganda, 3,0 barobarni va beton sinfi B22,5 bo'lganda 2,88 barobarni tashkil etadi; o'rtacha bu qiymat 3,22 ga teng. Bunga asosiy sabab adgeziyani armatura yuzasi bo'ylab notekis tarqalishi va armatura ko'ndalang qovurg'alarining beton bilan tarmashishi, ya'ni o'zaro bog'lanishidir. Armatura sterjenlarining bazaltfibrobeton bilan bog'lanish mustahkamligining o'zgarishi mavjud "bog'lanish nazariyasi" bo'yicha yuz beradi va ma'lum qonuniyat bo'yicha sodir bo'ladi.

Bazaltfibrobetonning armatura bilan bog'lanish mustahkamligi bo'yicha olingan eksperiment natijalarini armatura diametri va beton sinfining o'zgarishlarini inobatga oluvchi koeffitsientlar orqali tahlil qilib chiqildi. Buning uchun qo'shimchasiz og'ir betonlar uchun taklif qilingan ifodalardan foydalanildi.


Armatura diametri o'zgarishini inobatga oluvchi koeffitsientning K_d bazaltfibrobeton uchun olingan natijalar 7-rasmda keltiriladi.



7-rasm. Bog‘lanish mustahkamligiga sinfi A400 armatura diametrlarini ta‘sirini inobatga oluvchi K_d koeffitsientning o‘zgarishi:
1 – og‘ir beton; 2 – bazaltfibrobeton.


Armatura diametri 12 mm bo‘lganda uning bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligi armatura diametri 18 mm ga nisbatan 10% ga ko‘p; Armatura diametri 25 mm bo‘lganda uning bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligi armatura diametri 18 mm ga nisbatan 15% ga kam. Bunga sabab, dispers armaturaning bazaltfibrobeton tarkibini va kontakt zonaning shakllanishiga ta‘siri hamda ular orasida hosil bo‘lgan bosim turlichaligi, deb qarash mumkin.

Beton sinfining o‘zgarishini inobatga oluvchi koeffitsientning K_b bazaltfibrobeton uchun olingan natijalari 8-rasmda keltiriladi.




8-rasm. Bog‘lanish mustahkamligiga beton sinfi ta‘sirini inobatga oluvchi K_b koeffitsientning o‘zgarishi: 1 – og‘ir beton; 2 – bazaltfibrobeton.


Yuqorida keltirilgan va tahlil qilingan eksperimental tadqiqotlar natijalari kompyuter boshqaruv tizimida ishlaydigan zamonaviy gidravlik press (PGM-1000MG4) va cho‘zuvchi gidravlik mashinalarda (RGM-500MG4) o‘tkazilgan. Beton namunadan armaturani tortib chiqarishda sodir bo‘ladigan siljish deformatsiyalarni soat turidagi bo‘laklari 0,01 mm li indikatorlarda va mashinaning o‘zidagi o‘lchamlardan olib, ularni o‘zaro solishtirildi (9-rasm).



9-rasm. Armaturani tortib chiqarishdagi siljishini kompyuter (a) va indikatorlar orqali o‘lchash (b)

Eksperimental tadqiqotlarda alohida namunalar uchun olingan natijalarning grafik ko‘rinishlari 10-rasmda keltirilgan.





10-rasm. Armaturning bazaltfibrobeton namunadan tortib chiqarishdagi siljishning o'zgarish grafiklari

Bo'ylama kuch ta'sirida armaturaning betondagi u bilan birga ishlashi bog'lanish mexanizmiga bog'liq bo'lib, o'zaro siljishni keltirib chiqaradi. O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda yuk ta'sirining dastlabki bosqichida bog'lanish kuchlari adgeziya hisobidan paydo bo'ladi. Bu holatda siljishni qiymatlari juda kichik bo'ladi va bog'lanish mustahkamligi taxminan 0,5-1,0 MPa dan ortmaydi, ya'ni silliq yuzali armaturaning beton bilan bog'lanish mustahkamligining 50-60 % atrofida bo'ladi. Bu holat beton va armaturaning elastik ishlashi bilan tavsiflanadi, betonda ko'ndalang deformatsiyalar sezilarsiz bo'ladi. Armaturani o'rab turgan beton tarkibida birinchi darzlar elastik ishlash chegarasining oxirgi bosqichida sodir bo'lishi mumkin va bo'ylama kuchni oshirish hisobiga yangi kuchlanganlik – deformatsion holati yuzaga keladi. Bu bosqichdagi bog'lanish mustahkamligi betonning cho'zilishga bo'lgan mustahkamligiga, davriy kesim yuzasi, armaturaning geometrik parametrlariga bog'liq bo'ladi va bog'lanish hisobidan shakllanadi. Namuna balandligi bo'yicha zo'riqishning taqsimlanishi bir tekis davom etmaydi, yuqori kuchlanish namunaning o'rta qismiga to'g'ri keladi. Bu holatda darzlarning hosil bo'lishiga armatura bilan beton orasidagi kontaktlarni buzilishlari va betonning cho'zilishga bo'lgan mustahkamligidan ko'p bo'lgan kuchlanishlar paydo bo'lishi sabab bo'ladi. Bundan tashqari hosil bo'lgan plastik deformatsiyalar hisobidan yuklanmagan armaturaning kontakt yuzalarga nisbatan siljishi kuzatiladi.

Davriy kesim va silliq yuzali mahalliy armaturalarning bazaltfibrobeton bilan bog'lanish mustahkamligini tadqiqoti bo'yicha o'tkazilgan eksperimentlarga binoan yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bazaltfibrobeton namunalaridan markaziy

joylashgan armatura sterjenlarini tortib chiqarishning so‘ngi bosqichida beton namunalarning buzilish xarakterlari turlicha ekanligini kuzatish mumkin (11-rasm). Bunga sabab, armatura bilan betonning kontakt qismidagi o‘zaro birga ishlash sharoiti deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi.



11-rasm. Bazaltfibrobeton namunalaridan markaziy joylashgan armatura sterjenlarini tortib chiqarishdagi beton namunalarning buzilish xarakterlari

Silliqlik yuzali armatura joylashtirilgan beton namunada buzilishdan bo‘ylama darzlar mavjud emas, chunki uning bog‘lanish mustahkamligi davriy kesim yuzali armaturaning bazaltfibrobeton bilan bog‘lanish mustahkamligiga qaraganda 2-3,5 barobar kam.

Armaturani bazaltfibrobeton namunalaridan tortib chiqarishdan olingan siljishlarning qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Bazaltfibrobeton mustahkamligi, MPa	Armatura sinfi	Siljish, mm		
		Armatura diametri, mm		
		12	18	25
21,2	A240	3,32	–	–
26,8		3,79	–	–
30,1		6,18	–	–
21,2	A400	9,03	7,63	6,72
26,8		7,55	7,54	6,08
30,1		9,08	8,87	7,98

Izoh. O‘rtacha qiymatlar keltirilgan.

